

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TRANSPORTI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALARI

*Buxoro Davlat Pedagogika instituti Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti
Geografiya va Iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi talabasi*

Oripov Behruz

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasining transport tizimi va uning tashqi iqtisodiy aloqalardagi o'rni hamda ahamiyatini tahlil qiladi. Maqolada O'zbekiston transport infratuzilmasining hozirgi holati, mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, mamlakatning asosiy transport yo'nalishlari, tranzit salohiyati va uni oshirish imkoniyatlari o'rganiladi. Maqolada O'zbekistonning tashqi savdo aloqalari geografiyasi, eksport va import tarkibi hamda transport xarajatlarining savdo samaradorligiga ta'siri tahlil etiladi. Transport logistikasini rivojlantirish, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va xalqaro transport koridorlarida ishtirok etishning tashqi iqtisodiy faoliyatga ta'siri baholanadi. Tadqiqot natijalari O'zbekistonning transport tizimini modernizatsiya qilish, logistika xizmatlarini takomillashtirish va transport infratuzilmasini rivojlantirish orqali tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Transport tizimi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, Logistika Transport infratuzilmasi, Eksport, Import, Tranzit salohiyati, Transport koridorlari, Modernizatsiya, Investitsiyalar, Raqobatbardoshlik, Savdo aloqalari Transport xarajatlari

Kirish: Transportning asosiy vazifasi keng aholi ommasi hamda milliy iqtisodiyot korxona va tashkilotlarining transport xizmatiga bo'lган barcha talab – ehtiyojlarini to'la va yuqori sifat bilan qondirishdan iborat. O'zbekistonning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash va uning jahon uyushmasiga kirib borishi uchun mukammal transport tizimiga ega bo'lish kerak. Turli xil transport vositalari sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va uni istemolchilarga o'z vaqtida, isrof qilmasdan etkazishda faol ishtirok etadi. Aholini bir manzildan ikkinchi bir manzilga etkazishda ham transportning ahamiyati kattadir. Transport ishlab chiqarish tizimida muhim o'rinni tutishi bilan birga u har qanday hudud xo'jaligi majmuasining zaruriy bo'g'ini bo'lib xizmat qiladi. Uning rivoji tufayli hududlarni iqtisodiy jihatdan ixtisoslashtirish mumkin. Transport infrastrukturasi va yo'l tarmoqlarining samarali rivojlanishi kadrlarning qishloqlarda mustahkam o'mashib qolishiga, mehnat resurslaridan unumli foydalanish imkonini yaratadi. Mamlakat transport tarmog'i temir yo'l, avtomobil, aviatsiya, quvurlar va daryo suv yo'llaridan

iborat. Transportning barcha turlari yordamida Respublikada har yili xalq xo'jaligi uchun zarur bo'ladigan turli – tuman yuklar va yo'lovchilar tashiladi.

Asosiy qism: O'zbekistonda mavjud bo'lgan transport turlari orasida etakchi va muhim o'rinni temir yo'llar egallaydi. Mamlakatda tashiladigan yuklarning 66 foiziga yaqini transportning ana shu tarmog'i zimmasiga tushadi va bu transport mamlakat transport tizimining negizini tashkil etadi. Ort va import qilinadigan yuklarning qariyb 80 foizi ham temir yo'l transporti orqali amalga oshiriladi. Ushbu yo'l yordamida 1999 yil tashilgan yo'lovchilar soni 13,3 million kishini tashkil etgna. Iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan va bozor munosabatlariga o'tilayotgan hozirgi murakkab sharoitda ishlab chiqarish korxonalari, tashkilot va mamlakat hududlarining samara bilan ishlashi ko'p jihatdan temir yo'llarining qay darajada faoliyat ko'rsatishga bevosita bog'liq. Yuklarning temir yo'llar yordamida va iloji boricha arzon tashilishi iqtisodiyot taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga ega.. O'zbekiston Respublikasida umumiyl foydalaniladigan yuk va yo'lovchilar tashuvchi transportning barcha turi temir yo'l, Avtomobil, havo, shahar elektr transporti (Tramvay, trolleybus, metropoliten) suv (daryo) quvur trans, shuningdek umumiyl foydalanilmaydigan (sanoat) transporti – temir yo'l Avtomobil, tasmali transport, osma arqon transporti rivoj topgan. 1920 – 91 yillarda Respublika transportning asosiy turlari sobiq ittifoqning markaziy vazirliklariga yoki ylarning O'rta Osiyo, O'zbekiston bo'yicha hududiy boshqarmalariga bo'ysungan: temir yo'l transportiga O'rta osiyo temir yo'l boshqarmasi, suv transportiga O'rta Osiyo davlat paroxodchiligi boshqarmasi havo transportiga ittifoq fuqoro aviatsii, vazirligining O'zbekiston fuqoro aviatsiya boshqarmasi, umumiyl foydalanishdagi Avtomobil transportiga O'zbekiston SSR Avtomobil transporti vazirligi rahbarlik qilgan. Respublika mustaqilliga erishgandan keyin transportning xalq xo'jaligiga va aholiga xizmat ko'rsatishini tubdan yaxshilash va transport boshqarmasi tizimini takomillashtirish maqsadida "O'z havo yo'llari" milliy vaiakompaniyasi (1992 28-yanvar) "O'z Avtomobil transport" (O'zavtotrans) davlat aksionerlik korporatsiyasi (1993 8 – yanvar. 1998 – y. 11 – iyuldan O'zbekiston Avtomobil va daryo tarnsport agentligi); "O'zbekiston temir yo'llari" davlat aktsionerlik kompaniyasi (1994 7 – noyabr) va boshqa idoralar tashkil etildi. Mustaqil O'zbekiston tobora nafaqat jahon siyosati, balki jahon iqtisodiyotiga tez kirib bormoqda va qator mamlakatlar bilan savdo – sotiq aloqalarini o'rnatish va rivojlantirishga intilmoqda. Bunda esa transport xizmatlarining o'rni katta.

Xulosa. O'zbekiston Respublikasining transport tizimi mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Geografik joylashuvi va tranzit salohiyati O'zbekistonga mintaqaviy savdo aloqalarida faol ishtiroy etish imkonini beradi. Biroq, transport infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, logistika xizmatlarining sifati pastligi va bojaxona tartib-taomillarining murakkabligi tashqi savdo samaradorligini cheklaydi.O'zbekiston hukumatining transport tizimini

modernizatsiya qilish, logistika markazlarini yaratish va xalqaro transport koridorlarida ishtirok etishga qaratilgan siyosati tashqi iqtisodiy aloqalarini faollashtirishga xizmat qiladi. Transport sohasiga investitsiyalarni jalb qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va transport xarajatlarini kamaytirish orqali O'zbekiston o'zining raqobatbardoshligini oshirishi va tashqi savdo aylanmasini kengaytirishi mumkin. Kelgusida O'zbekistonning transport tizimi va tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim:

- Transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va yangi yo'llar qurish.

Logistika xizmatlarini takomillashtirish va zamonaviy logistika markazlarini yaratish.

- Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va raqamlashtirish.

- Xalqaro transport koridorlarida ishtirok etish va tranzit salohiyatini oshirish.

• Transport sohasiga investitsiyalarni jalb qilish va davlat-xususiy sherklik loyihalarini amalga oshirish. Ushbu chora-tadbirlar O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarini yanada rivojlantirishga, eksport salohiyatini oshirishga va mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Abdurahmanov, Y. (2020). O'zbekiston transport tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, (3), 12-25.
2. G'ulomov, N. (2015). Logistika menejmenti. Toshkent: TDIU nashriyoti.
3. Shamsiyev, T.S., & Xodiyev, B.A. (2018). Logistika. Toshkent: Iqtisod-Moliya.
4. Zokirov, Sh.Z. (2019). Xalqaro logistika. Toshkent: Fan va texnologiya.